

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Xasanova Zilola Jalil qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: xasanovazilola0505@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Bugungi kunda ingliz tili global muloqot vositasiga aylanib borayotganligi sababli, uni erta yoshdan boshlab o'rgatish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu jarayonning ahamiyati va samarali usullari haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные подходы к обучению английскому языку детей дошкольного возраста. В настоящее время английский язык становится глобальным средством общения, поэтому важно начинать его изучение с раннего возраста. В статье представлена информация о значении данного процесса и эффективных методах обучения.

Abstract : This article discusses modern approaches to teaching English to preschool children. Nowadays, English is becoming a global means of communication, therefore it is important to start learning it from an early age. The article provides information about the importance of this process and effective teaching methods.

Kalit so'zlar: Chet tili, lug'at boyligi, fonetika, Shekter usuli, o'yin, metodika, multfilimlar, topishmoqlar, kommunikativ yondashuv, interaktiv usullar, rol o'yinlari, vizual materiallar, eshitish ko'nikmasi, talaffuz, grammatika asoslari, bolalar psixologiyasi, didaktik o'yinlar, motivatsiya, erta ta'lim, lingvistik rivojlanish, kreativ ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

Ключевые слова: иностранный язык, словарный запас, фонетика, метод Шехтера, игра, методика, мультфильмы, загадки, коммуникативный подход, интерактивные методы, ролевые игры, визуальные материалы, навыки аудирования, произношение, основы грамматики, психология детей, дидактические игры, мотивация, раннее обучение, лингвистическое развитие, креативное обучение, педагогические технологии.

Keywords: foreign language, vocabulary, phonetics, Shekhter method, game, methodology, cartoons, riddles, communicative approach, interactive methods, role play, visual materials, listening skills, pronunciation, basic grammar, child psychology, didactic games, motivation, early education, linguistic development, creative learning, pedagogical technologies

XXI asr – jadal rivojlanish davri bo'lib, unda ta'lim va tarbiya tizim muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida yosh avlod asosiy tayanch ustunidir. Barkamol shaxsni shakllantirish esa ta'limning bosh muddaosi qilib qo'yilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish ularning intellektual va shaxsiy rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Chet tillini o'rganish bolani ko'p tilli va ko'p madaniyatli muhitga tayyorlaydi hamda yangi til olami bilan tanishtiradi. Bugungi kunga kelib chet tili nafaqat maktab va oliy ta'lim muassasalarida, balki maktabgacha ta'lim tizimida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib

borayotganligi sababli, hozirda ota – onalar farzandlariga bu bilimni imkon qadar erta berishga harakat qilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadi : ular da boshlang'ich kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish ,o'z fikr va hissiyotlarini oddiy shaklda ifoda etish hamda boshqa madaniyatlarga qiziqish uyg'otishdan iborat. Bu yoshdagi bolalar ayniqsa tovush va intonatsiyaga sezgir bo'lishadi ,shuning uchun to'g'ri talaffuzni shakllantirish muhim vazifa deb e'tirof etiladi. Bunga turli fonetik mashqlar va o'yinlar orqali erishiladi. Shu jumladan , bolalar bilan ishlash jarayoni kattalarnikidan tupdan farq qiladi. Ular uchun o'qitish jarayoni zerikarli emas balki ijodiy, qiziqarli va faol bo'lish kerak. Dastlabki bosqichda bolalarda quyidagi ko'nikmalar rivojlantiriladi : to'g'ri talaffuz qilish , so'z boyligini kengaytirish va sodda grammatika tuzilmalarni o'zlashtirish shu bilan bir qatorda ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish nazarda tutiladi.

Ta'lim jarayonida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ro'l o'ynaydi. Ularni til o'rganishga jalb etish uchun eng samarali usullardan biri bu - o'yindir. O'yin orqali bolalar yangi so'zlarni oson o'zlashtiradi ,qo'shiqlar ,she'rlar ,va qisqa iboralarni eslab qoladi. O'yin metodikasi tasavvur vaziyatlar yaratish va rolli o'yinlardan foydalanishga asoslanadi. Bu orqali bolalar ko'rish ,eshitish ,harakat qilish kabi sezgi organlari yordamida tilni o'zlashtiradilar . Ayniqsa , Shexter usuli amaliyotga asoslangan bo'lib , tilni tabiiy yo'l bilan o'rganishga yordam beradi. Bu usul uch bosqichdan iborat: avval so'z iboralar , so'ngra esa grammatik tuzilmalar o'rgatiladi.

Dars jarayonida salomlashish , xayerlashish kabi oddiy iboralar muntazam qo'llash bolalarda tilga moslashuvini osonlashtiradi. Eng muhimi , ularning nutqiy faoliyatini faollashtirish va muloqotga jalb qilishdir. Maktabgacha ta'lim ingliz tilini o'rgatish jarayoni zerikarli bo'lmasligi kerak. Bolalar erkin harakat qilishi , o'ynashi va faol ishtirok etish zarur. Ta'lim jarayonida quyidagi usullar samaraliroq: harakatli o'yinlar , mavzuga mos muhit yaratish ,imo – ishoralar va mimikadan foydalanish shu jumladan topishmoqlar, rangli tarqatmalar orqali fikrlashni rivojlantirish. Masalan , multfilmlar bolalarning qiziqishini oshiradi va ular qahramonlar harakatlar qiladi. Harakatli o'yinlar esa ularni faol ishtirok etishga undaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, barcha bolalarni darsda faol qatnashishlari uchun darsni boshlanishdan oldin turli diqqatni tortadigan o'yinlar bilan boshlash kerak bularga misol qilib: so'z toppish o'yinlari, fantamima va ranglar o'yinlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Dars so'ngida esa faol qatnashgan bolalarga rag'bat sifatida turli sovg'alar berish kerak bu bolarni darsda faol qatnashishlariga turtki bo'ladi. Shuninn qo'shimcha qilib o'tishish kerakki dars davomida bolalarga o'tilgan mavzular takrorlash qilib turli xil savol –javob qilish o'tilgan mavzularni mustahkamlaydi va kundan kunga so'z boyligiga oshib boradi va fikrlari ravon tiniq bo'ladi. Metodning muvaffaqiyatli bo'lishining eng muhim shartlaridan bo'lgan bolalarning nutqi fikrlashi faoliyatni yanada samaraliroq qiladi shu bilan bilan bir qatorda ularni chet tili muloqatiga jalb qilishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilini o'rgatishni o'ziga xos xususiyati shundan iboratki , ular shunchaki stolda o'tirib , kitob va daftarlarini varaqlashlarini hohlamaydilar. Bu jarayon zerikarli bo'lib qolmasligi kerak va bolalar o'zlari bilimga intilishlari lozim. Bolalar ravon o'ylashadilar ,hamma narsani so'zma – so'z qabul qilishadi va gapirishadi. Ta'lim shakllari ko'proq leksik birliklarni o'zlashtirishginia emas, shuningdek mavzuga qiziqishni tarbiyalashga , bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'z fikrlarini namoyon eta

olishlari kerak. Bolalarni ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashidan ko'ra ancha samarali ekanligini takidlab o'tish mumkin. Aqiliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil o'yinlar; ingliz tildagii turli xil qiziqarli multfilmlar; Bolalar til o'rganayotgan mobaynida multfilimdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramanlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va shu jumladan til o'ragishning samarali yo'li hamdir.

Rol ijro etish (rol play) o'qtuvchi malumotni, misol uchun: qushlar, havonlar yoki sabzavotlar nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi mumkin. Masalan, bir o'quvchi itning vovillashi, mushikning miyovlashini bolalarga ko'rsatib bersa, yana bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishligini bilib, ingliz tilida nima deb atalishni aytish kerak.

Imo – ishoralar, yuz mimikalari orqali; O'qtuvchi o'quvchilarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yerga kel (come here), kitobni oching (open the book), o'rningizdan turing (stand up), doskaga qarang (look at the blackboard) shu gaplarda imo – ishoralardan foydalansa bolalarga tushunarli bo'ladi.

Topishmoqlar: Bolalar topishmoqlarni javobini topishga qiziqadilar. Shuning uchun o'qtuvchi topishmoqlarni ingliz tilida yoki o'zbek tilida aytsa, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishni talab qilishi kerak bo'ladi. Shu sababli bolalar so'zlarni tez o'rganadilar. Agarda mavzu "Fruits" bo'lsa o'qtuvchilar har xil mevalarni nomini o'qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz juda ham katta e'tibor qaratishadi, va osonlik bilan mevalarni nomlarini ayta boshlaydi apple, banana, grips..... deb

Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli: kundaliksagi so'z boyligini targ'ib qilishning usullaridan biri bu - Touchtime Internationalning direktori dokto'r Eleyen Fogel shneyderning ta'kidlashiga ko'ra: "bolalarga umumiy brendlar va belgilar og'zaki yo'rliq qo'yishdir". U rasmdan so'zga tarjima qilish tilni boy etishga yordam berishni tushuntiradi. Yani bu bilan bolalar yangi so'zlarni tez va oson o'zlashtirishida juda katta rol o'ynaydi.

Ovozni anglab olish va moslashtirish: Ushbu o'yin uchun kartondan kesilgan bir nechta katta harfladan iborat bo'lgan va shu harflar bilan boshlanadigan turli xil kichik, ammo unchalik katta bo'lmagan narsalar kerak bo'ladi. Masalan, agarda sizning harfingiz Q va Sh bo'lib, sizda qush va mushuk bo'lsa, bolaga qush chiqaradigan ovozni aytishdan boshlang. Keyin, bolani xuddi shu tovush bilan boshlanadigan narsani topishga harakat qilishsin va uni harfga yopishtirishsin. Yasalgan harflar sinfda saqlanishi yoki o'zlari bilan olib ketishi mumkin. Shneyderning ta'riflashicha, bu mashg'ilot o'quvchilarning sevimli narsalaridan biridir, chunki bu ularga o'z bilimlarini o'rganishda amaliy yordam beradi. Shu bilan bir qatorda bu "shoh asar"ni keltirib chiqaradi.

Tabiat dunyosi orqali o'rganish: Bolalar darslarni tabiat muhitida bilim olishni yoqtirishadilar. Ba'zan tabiat dunyosi to'g'risida ingliz va o'zbek tilida ma'lumot berish ajoyib usuludir. Bu usul o'simlikning urug'dan yetilguncha o'stirish, bolalarga o'simliklar o'sishi haqida ma'lumot beribgina qolmay, ularni chet tilidagi so'zlarni tez va oson o'zlashtirishda ham muhim ahamiyatgan egadir. Shu bilan bir qatorda bu usul stressni yengillashtiradi va so'zlarni tez yod olishiga yordam beradi.

O'qituvchining faoliyatini o'quvchilarga moslashtirish : Bir nechta tarbiyachilar uchun doimiy qo'llanib kelinayotgan dars uslublari balki osondir. Ammo bunday qo'llanmalar barcha bolalar uchun birdek mos kelavermaydi. Gretzinger ta'kidlaganidek , an'anaviy bo'lmagan uy sharoitidagi ulg'ayotgan bolalarga juda ham sezgir bo'lishadi . Bolalardan o'z oilasining rasmini chizishni so'rashdan oldin, bolalar haqida ma'lumotlarni bilishi kerak . Asrab olingan yoki ota – onasidan erta ajralgan bolaga qanday ta'sir qiliashini , qolgan bolalar qanday munosabat bildirishlarini inobatga olish juda ham muhim. Inklyuziv faoliyatlarni etish juda ko'p vaqt olishi mumkin , ayniqsa o'quv yilining boshida o'qituvchi hali barcha bolalarni yaxsh bilib olmagan bo'ladilar . Shunga qaramasdan, bolalarda uyat yoki noqulaylik hissining borligi sinf muhitiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchilar doim ijodiy yadashishi kerak bo'ladi. Maktabgacha ta'lim – bolalarning ta'lim - tarbiyasidagi eng muhim boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Tog'ri tashkil etilgan dastur bolalarning individual qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanishiga yordam beradi .shuning uchun ingliz tili darslarini hozirdan boshlash zarur. Bolalar chet tilini ko'proq hikoyalarni o'qib tushunish yoki o'yinlarda ishtirok etish orqali oson o'zlashtiradilar.Til kunikmalari bir tomondan bolalarning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lishi , ikkinchi tomonda esa ularni muloqotga undaydigan , qiziqarli va ahamiyatli faoliyatlarga asoslanishi lozim. Dars davomida bolalar o'zlarini jarayonning ajralmas bir qismi sifatida his qiladilar va ko'pincha o'zlarini go'yo asar qahramonidek tutadilar. Ayniqsa boshlang'ich bosqichda chet tilini o'qitish hayotiy hayotiy vaziyatlar va o'yinlarga asoslangan holda olib borilsa , yaxshi natijalarga erishiladi .O'yinlar- syujetli vaziyatlar orqali olib borilgan darslarda bolalar faol va qiziqsh bilan qatnashadilar , chunki ular o'zlarini shu jarayon ichida his qiladilar . O'quvchilar chet tilini, avvalo, sinf muhitida yashab , uni amalda qo'llash orqali o'rganadilar . shu bois , imkon qadar sinf o'rganilayotgan tilde olib borishi maqsadga ,muvofiq bo'ladi .Bolalar faqat topishiriqlarni tushunish bilangina cheklanib qolmasdan , balki o'z ehtiyojlarini ham ingliz tilida ifoda eta olishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida so'zlashguvchi shaxslarni darsga jalb qilish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir bolaning o'ziga xos o'rganish uslubi mavjuda bo'lganligi tufayli ta'lim jarayonida bu jihat albatta inobatga olinishi zarur bo'ladi . Ayniqsa taktil va kinestetik o'rganish usullari alohida e'tibor talab qilinadi. Boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilar bilim darajasi , qiziqshlari va qobiliyatlari jihatidan turlicha bo'ladi . Chet tilini o'zlashtirish ko'p jihatidan ularning tushunish qobiliyatiga bog'liq. Shu sababli har bir bolaning darsda faolligiga qarab rag'bat berish lozim . Ularda eshitish , harakat, ritm va vizual farqlash ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bolalar tez o'rganadilar va tez unutishadi . shuning uchun o'rganilgan materiallarni muntazam takrorlash , o'yinlar va ko'rgazmali vositalar orqali mustahkamlash tafsiyta etiladi . Ta'lim jarayoni spiral shaklda tashkil etilib, takrorlash uning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Chet tili ta'limi, eng avvalo, kundalik hayotda qo'llaniladigan amaliy bilim va ko'nikmlarni rivojlantirishi lozim. Shy bilan bi qatorda , nazariy bilimlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Darslar kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilib , o'quvchilarda kelajakda bilimlarni qo'llay olish kompetensiyasini shakillantirish kerak . Ko'pchilik bolalar chet tilini o'rganishga qiziqadi . Bu qiziqish doimiy bo'lib qolmaydi , shuning uchun o'qituvchi uni bolalarda quvonch uyg'otish va muvaffaqiyat hissini berish kerak bo'ladi. Mavzular hamda topshiriqlar o'quvchilar

uchun dolzarb , qiziqarli va tushunarli bo'lsa , darsning samaradorligi yanada oshadi . shu sababli autentik materiallardan foydalanish tavsiya etiladi .

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim bolalarning kelajakdagi rivojlanishida muhim o'rin tutadi . Ularning zamonaviy ta'lim texnologiyalari bolalarni ta'minlash lozim .Bu bosqich bolalarning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga foydali inson bo'lib yetishishida katta rol o'ynaydi. Shuning uchun bolalar ta'limiga katta ahamiyat qaratish , ularga qulay sharoit yaratish , yangi usullarni qo'llash , har bir bolaning rivojlanishini qo'llab - quvvat muhimdir. Chet tillarini o'rganish esa ularga kelajakda keng imkoniyatlar yaratadi va ularning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig- 2017. S. 238—239.
2. Eine neue Aufgaben - und Leistungsbewertungskultur, U. Gibitz in:Neue Wege im
3. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон"
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.-T.:O'qituvchi,2016 y.
6. Xaydarova Z.S Toshkent shahar yuridik texnikumi umumta'lim fanlar kafedrasida o'qituvchisi "Modern methods of teaching English" maqolasi 2021 y. Dekabr.
7. Yo'ldosheva D.A. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari. 2022